

**SAMARQAND VILOYATI XALQ TA'LIMI XODIMLARINI  
QAYTA TAYYORLASH VA ULARNING MALAKASINI  
OSHIRISH HUDUDIY MARKAZ**

**MAKTABGACHA, BOSHLANG'ICH VA MAXSUS TA'LIM  
METODIKALARI KAFEDRASI**

**O'QISH DARSLARI UCHUN  
TAQDIMOTLAR TAYYORLASH**

*(umumta'lim maktablarining boshlang'ich sinf o'qituvchilari  
uchun uslubiy ko'rsatma)*

**Samarqand – 2019**

Rabbonayeva Dildora. O‘qish darslari uchun taqdimotlar tayyorlash. Umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun uslubiy ko‘rsatma. – Samarqand VXTXQTMOHM, 2019-yil. 20 bet.

Taqrizchilar: X.Rabbanaqulov – SamDU, Boshlang‘ich ta’lim metodikasi kafedrasida dotsenti  
D.Jo‘rayeva – Samarqand XTXQTMOHM Maktabgacha, boshlang‘ich va maxsus ta’lim metodikalari kafedrasida o‘qituvchisi

Ushbu uslubiy ko‘rsatma umumta’lim maktablarining boshlang‘ich sinf o‘qituvchilari uchun mo‘ljallangan bo‘lib, o‘qish darslarida taqdimotlardan foydalanish yuzasidan uslubiy tavsiyalar berilgan.

Uslubiy ko‘rsatma Samarqand viloyati xalq ta’limi xodimlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish hududiy markazi Ilmiy kengashining 2019-yil 26-dekabr 5- sonli yig‘ilish qarori bilan nashrga tavsiya etilgan.

## KIRISH

O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019- yil 29-aprelda tasdiqlagan “O`zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030- yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi Farmoni, O`zbekiston Respublikasi XTVning 2011-yil 23-mart ”Umumta’lim maktablarida faoliyat ko’rsatayotgan o‘qituvchilarni zamonaviy AKTdan foydalanishi to‘g‘risida” kabi qarorlarini amalda bajarish maqsadida umumta’lim maktablarida darslarni sifatli tashkil etish, ayniqsa axborot texnologiyalardan foydalanib tashkil etishga e’tibor yanada kuchaydi. Ta’limda elektron darsliklardan, multimediya vositalaridan foydalanish bugungi kunning eng dolzarb masalalaridan biriga aylandi.

Yuqorida qayd etilgan qonun va qarorlarining ijrosini amalga oshirish uchun axborot-kommunikatsion texnologiyalar yordamida o‘quv jarayonini tashkil etish va uning samaradorligini oshirishdan asosiy maqsadimiz o‘qitish va o‘rganish jarayonini jadallashtirish bilan birga o‘quvchilarning har taraflama aqliy fikrlash va tasavvurlash malakalarini rivojlantirish, ularni zamonaviy axborotlashgan jamiyatda mustaqil fikrlash va ishlashga tayyorlash, ya’ni har qanday murakkab jarayonlarni amalga oshirishda mustaqil qarorlar qabul qilish, o‘zining fikrini va mulohazasini bayon qilishga o‘rgatish, tirishqoq hamda izlanuvchanlik faoliyatini shakllantirish bilim va malakalarini mukammal shakllantirish imkoniga ega bo‘lishdir.

Axborot-kommunikatsion texnologiyalardan ta’lim jarayonida foydalanish bir qancha yutuqlarni qo‘lga kiritadi.

Ta’lim jarayonida axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish o‘qituvchi va o‘quvchi uchun quyidagi qulayliklarni tug‘diradi.

- o‘quvchilarni fanga bo‘lgan qizqishlarini oshiradi;
- o‘quvchilarning kelajakdagi faoliyatiga ko‘mak beradi;
- o‘rganish va o‘qitishning yangi imkoniyatlarini yechib beradi;
- o‘z resurslardan oqilona foydalanishga imkoniyat beradi;
- turli yoshdagi o‘quvchilarni, turli yoshdagi o‘qituvchilar bilan moslashishi oson kechadi;

- talim jarayonida o'qituvchilar va o'quvchilar uchun ko'makdir.

Ana shu maqsadda zamonaviy axborot va kompyuter texnologiyalaridan ta'lim tizimida foydalanish quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

- axborot-kommunikatsion texnologiyalar o'rganish obyekti sifatida, ya'ni o'quvchilar yangi axborot texnologiyalari, ularning tarkibiy qismlari va foydalanish sohalari bo'yicha umumiy tushuncha va malakalarga ega bo'lishini ta'minlash;

- axborot-kommunikatsion texnologiyalar o'qitish vositasi sifatida, ya'ni zamonoviy axborot va pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarga bilim beriladi hamda ma'ruza, amaliy va laboratoriya mashg'ulotlari kompyuterlarning zamonaviy dasturiy vositalari asosida tashkil etish;

- ta'lim jarayonini boshqarish vositasi sifatida, ya'ni ta'lim muassasasining barcha ish faoliyati, shu jumladan o'quv, ma'naviy-ma'rifiy va ilmiy-tatqiqot ishlari samaradorligini oshirish uchun axborotlashtirish, tahlil va bashorat qilish tizimini yaratish;

- o'quvchilar va o'qituvchilarning ilmiy-pedagogik izlanishlarini amalga oshirish vositasi sifatida, ya'ni o'quv muassasasida o'qituvchi va o'quvchilar orasida ilmiy-tatqiqot va pedagogik izlanishlar samaradorligini oshirish uchun zamonaviy axborot tizimlarini yaratish va tatbiq etish.

Biz ushbu uslubiy ko'rsatmada asosan axborot-kommunikatsion texnologiyalardan o'qitish vositasi sifatida, ya'ni o'quv jarayonida yangi axborot texnologiyalari vositalaridan foydalanish samaradorligi va istiqbollari masalalariga to'xtalamiz.



## **O‘quvchi shaxsini rivojlantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati**

Boshlang‘ich ta’lim tizimida axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanish o‘quv jarayonini individuallashtirish va mustaqillashtirish imkonini yaratadi. Internet texnologiyalarining kirib kelishi o‘quvchilarga axborot manbalaridan keng foydalanish imkonini beradi, mustaqil ishlar samaradorligini oshiradi, ijodkorlik, malaka va ko‘nikmalarini egallash va mustahkamlash yuzasidan yangi imkoniyatlar berib, ta’limning yangi shakli va metodlarini amalga oshirishga sharoit yaratadi.

Ma’lumki, boshlang‘ich ta’lim – ta’lim tizimining poydevori hisoblanib, o‘quvchilarni o‘qitish sifati unga bog‘liq boladi va bu boshlang‘ich maktab o‘qituvchisi zimmasiga katta mas’uliyat yuklaydi. Uzoq vaqt davomida ta’lim tizimida boshlang‘ich maktab “ko‘nikmalar maktabi” bo‘lib keladi, ya’ni o‘quvchi keyingi ta’lim olish uchun o‘qish, yozish, hisoblash kabi asosiy ko‘nikmalarni o‘zlashtirishi kerak bo‘lgan ta’lim bosqichi sifatida qaralgan. Bugungi kunda u ta’lim tizimida bolaning birinchi tajribasi – ta’lim olish kuchlarini sinash joyi bo‘lib qolishi kerak. Ushbu bosqichda faollikni, mustaqillikni rivojlantirish, idrok etish faolligini saqlab qolish va bola ta’lim dunyosiga shaxdam kirib borishi uchun sharoitlar yaratish, uning salomatligi va emotsional xususiyatlarini mustahkamlash muhim. Bugungi kunda o‘quvchilarning mana shu sifatlari ta’lim jarayoniga AKT ni joriy etish bilan rivojlanayotganligining guvohi bo‘lmoqdamiz.

Boshlang‘ich sinflarda axborot texnologiyalaridan foydalanish o‘quvchilarning kayfiyati, qiziqishlari, hayot tarzi, dunyoqarashi, tafakkuri, aqliy va kasbiy ko‘nikmalarini namoyon qiladi. Axborot texnologiyalari vositalari yordamida tajriba almashish, butun dunyoda ro‘y berayotgan voqea va hodisalardan, yangiliklardan habardor bo‘lish lozim bo‘lib qolganda, ularga nisbatan o‘z dunyoqarashi va fikrini bayon etish, o‘z axborot ta’lim muhitini kengaytirish, kasbiy rivojlanish va mustaqil ta’lim olish uchun sharoitlar yaratish,

jamiyat axborot resurslaridan o'z faoliyatida foydalanish, tarmoqlarning turli tadbirlarida ishtirok etish kabi imkoniyatlarni beradi.

Boshlang'ich sinflarda axborot texnologiyalaridan foydalanish natijasida shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni amalga oshirish va o'quv jarayonini samarali tashkil qilish imkoniyati paydo bo'ladi. Buning uchun esa mashg'ulotlarning har bir mavzusi bo'yicha dars ishlanmalari yaratish maqsadga muvofiqdir. Ana shu ishlanmalar asosida barcha mavzularga oid AKT vositalari yordamida bayon etilishi lozim bo'lgan nazariy va amaliy materiallarning elektron taqdimoti shakli tayyorlanadi. Dars ishlanmalariga taqdimot, slaydlar tayyorlanib, video proektorlar orqali o'quvchilarga rasmlarning aniq jarayonlarini aks ettiruvchi tasvirlar tarmoqdagi ma'lumotlardan katta elektron ekranda ko'rsatib, tushunchalar berilsa, o'quvchilarning darsga nisbatan qiziqishlari ortadi. Axborot ta'lim resurs portallaridan multimediali taqdimot nafaqat matnli va ko'rgazmali, balki ovozli, animatsiyali bo'lishi o'quvchilar tomonidan mavzuni mukammal o'zlashtirishda katta yordam beradi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari talabchan, intiluvchan, qiziquvchan, televideniya, matbuot, kompyuter va axborot texnologiyalari orqali ko'proq va qiziqroq ma'lumotlarga ega bo'lishni istashadi. Shu bilan birga olingan ma'lumotlarni mazmun va mohiyatini tushunishga, ularni har tomonlama tahlil va idrok qilish hamda mustaqil fikr bildirishga qiziqishadi. Buning uchun esa doimiy ravishda tashqi muhit bilan ulanish, axborot almashuvini amalga oshirish uchun eng avvalo, umumta'lim maktablaridagi kompyuterlar internet tarmog'iga ulangan bo'lishi va o'zlarining web-saytlariga ega bo'lishlari lozim.

Shuningdek, axborot manbalari bilan ishlash jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarida mavjud manbalardan foydalangan holda, kerakli axborotni izlashga intilish, aniqlangan ehtiyojlar va zaruriyatga qarab axborotni tanlab olish, mustaqil fikrlash, topilgan axborotga nisbatan o'z munosabatini bildirish va uni himoya qilish xususiyatlari paydo bo'ladi. Bunda o'qituvchining vazifasi o'quvchilarda axborot ehtiyojini rivojlantirish, takomillashtirish, tegishli o'zgartirishlar kiritish,

o'quvchilarga axborot izlash va axborot-tahlil faoliyatida kerak bo'ladigan usullarni o'zlashtirishga yordam berishdan iborat bo'ladi.

O'quv jarayonida axborot texnologiyalarini qo'llash ilg'or metodlarni yanada boyitishga, o'qituvchilar mehnat faoliyatining o'zgarishiga, ish uslublarining takomillashuviga, o'zgarishiga olib keladi. Chunki o'quvchi kompyuterda ishlashda materiallarni o'rganish, masalalarini yechish, misollarni bajarish sur'atini tanlashi mumkin. Bu sur'at har kimning individual biluv imkoniyatlari va qobiliyatlari bilan aniqlanadi.

Ta'lim samaradorligini oshirish va mazmunini yanada boyitish uchun har bir o'qituvchi zamonaviy axborot texnologiyalari va axborot-kommunikatsion texnologiyalaridan albatta foydalanishi lozim.

Yoshlarni o'qitish va tarbiyalash kabi murakkab masalalarni muvaffaqiyatli hal qilish ko'p jihatdan o'qituvchining g'oyaviy e'tiqodi, professional mahorati, bilimdonligi, madaniyatiga bog'liqdir. Zamonaviy pedagog o'quvchiga ta'sir etish, uning istaklarini, e'tiqodini, qiziqishi va imkoniyatlarini shakllantira bilishi kerak. Demak zamonaviy maktabga yuksak ma'lumotli, faol, izlanuvchan, zamon talablariga javob bera oladigan ustoz – pedagog kerak.

Ushbu uslubiy ko'rsatmada boshlang'ich sinf o'qish darslarida axborot va pedagogik texnologiyalardan foydalanishning integratsiyalashgan shakli keltirilmoqda. Ya'ni "Tushunchalar tahlili" va "Baliq skeleti" texnologiyalari, rasmi ko'rgazma qurollardan foydalanib loyihalashtirilgan dars ishlanmasi prezentasiya shaklida tayyorlangan.

## O'qish darslari uchun taqdimotlar tayyorlash

### **Mavzu: Navro'z – bahor bayrami.**

#### **Darsning maqsadlari:**

O'quvchilarning milliy qadriyatlarimizdan biri – Navro'z bayrami haqidagi bilimlarini boyitish, milliy udumlar, urf odatlar bilan tanishtirish

Tabiatni asrab avaylashga o'rgatish. Milliy udumlar, urf odatlarimizga hurmat ruhida tarbiyalash

O'quvchilarning to'g'ri ifodali, o'qish malakalarini, mustaqil va erkin fikrlashlarini rivojlantirish

#### **Dars bosqichlari:**


- 1. Tashkiliy qism.**
- 2. O'tgan mavzuni so'rash.**
- 3. O'tgan mavzuni mustahkamlash**

- 4. Yangi mavzu bayoni.**
- 5. Yangi mavzuni mustahkamlash**
- 6. Dars yakuni: baholash va uyga vazifa**



## O'qish fanidan fanga oid kompetensiyalar:

- ▶ **1. Adabiy – nutqiy kompetensiya**  
(tinglab tushunish, fikrni og`zaki bayon qilish, o`qish, fikrni yozma bayon qilish)
- ▶ **2. Badiiy asarni tahlil qilish kompetensiyasi**



# Oltin qoidalar



# Kichik guruhlarga bo'lish

Boychechak

Binafsha

Lola

Binafsha guruhiga

## TUSHUNCHALAR TAHLILI

T.R.	Tushuncha	Mazmun
1	<b>Navro'z</b>	O'zbek xalqining milliy bayrami
2	<b>Milliy</b>	Har bir xalqning avloddan-avlodga o'tib, e'zozlanib kelinayotgan odatlari
3	<b>Xalq</b>	Vatani, tili, dini, milliy odatlari bir xil xalq

Boychechak guruhiga

## TUSHUNCHALAR TAHLILI


T.R.	Tushuncha	Mazmun
1	<b>Yurt</b>	Insonning yoki har qanday jonzotning tug'ilgan, yashayotgan joyi.
2	<b>E'zoz</b>	Hurmatlash, muqaddas bilish
3	<b>Muqaddas</b>	Eng aziz, mo'tabar

Lola guruhiga


## TUSHUNCHALAR TAHLILI

T.R.	Tushuncha	Mazmun
1	<b>Mustaqillik</b>	Har bir inson yoki davlatning o'z erki, ozodligi
2	<b>Vatan</b>	Insonning yoki har qanday jonzotning tug'ilgan, yashayotgan joyi.
3	<b>Muqaddas</b>	Eng aziz, mo'tabar


Boychechak guruhiga



## Binafsha guruhiga



## Lola guruhiga



## Amir Temur haqida suhbat

Sohibqiron bobomiz Amir Temur 1336-yilning 9-aprelida Shahrisabzning Xo'ja Ilg'or qishlog'ida tavallud topganlar. Temurbek 7 yoshida bilim olishni boshlagan. 12 yoshida otda chopishni, qilichbozlikni puxta egallagan. Amir Temur buyuk sarkarda, davlatni boshqargan tarixiy shaxsdir. Amir Temur Turkistonni dehqonchilik, hunarmandchilik, ilm-fan va madaniyati rivojlangan ilg'or mamlakatga aylantirdi.



## Binafsha guruhiga


# Rasm asosida matn tuzing





Lola guruhiga

Rasm asosida matn tuzing



Boychechak guruhiga

Rasm asosida matn tuzing



Uy ishi tushuntiriladi.

Uyga vazifa: “Men sevgan bayram” mavzusida insho yozib kelish.

Topshiriqlar bo`yicha guruh ballari umumlashtirilib, rag`bat kartochkalari tarqatiladi.



## Rag`bat kartochkasi





## **Xulosa**

Ta'limning sifatini oshirish, davlat standartlari, o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalarni takomillashtirish uchun, ilg'or pedagogik va axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini keng joriy etish taqozo etiladi. Ta'lim muassasalarida tashkil etiladigan pedagogik jarayonlarning bugungi vazifasi o'quvchilarni kun sayin oshib borayotgan axborot ta'lim muhiti sharoitida mustaqil ravishda faoliyat ko'rsata olishga, axborot oqimidan oqilona foydalanishga o'rgatishdan iboratdir. Buning uchun ularga uzluksiz ravishda mustaqil ishlash imkoniyatini yaratib berish zarur. O'qitish sifatini oshirish, o'qitish metodikasining tubdan takomillashtirishni taqozo qiladi, o'qitish metodikasining takomillashtirish esa o'qituvchining turli-tuman texnikaviy vositalardan foydalanishiga bog'liq.

Xulosa sifatida shuni ta'kidlash lozimki, umumiy o'rta ta'lim maktablarida boshlang'ich ta'lim darslarining samaradorligini oshirishda axborot ta'lim resurslari, multimedia mahsulotlari, slaydlar orqali tashkil etiladigan zamonaviy darslar, o'quv filmlari katta ahamiyatga ega bo'lib, bu yo'nalishda olib borilayotgan ishlarni muntazam rivojlantirish lozim.

## **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017- yil 6 -apreldagi 187-son qarori. “Umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus, kasb-hunar ta’limining davlat ta’lim standartlarini tasdiqlash to‘g‘risida”.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 29-aprelda tasdiqlagan “O‘zbekiston Respublikasi xalq ta’limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmoni.
3. Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – T.: “O‘zbekiston”. - 2017.
4. Ishmuhamedov R., Abduqodirov A., Pardaev A. Tarbiyada innovatsion texnologiyalar (ta’lim muassasalari tarbiyachi-o‘qituvchilari va guruh rahbarlari uchun amaliy tavsiyalar) –T.: Iste’dod, 2010-y.
5. Tolipov O‘. Pedagogik texnologiyaning asosiy tamoyillari. “Xalq ta’limi”. 5-son, 2014-yil.
6. Yusupov M. “O‘qish va yozuv darslari samaradorligini oshirish”. Toshkent .2004- yil.
7. G‘affarova T. va b. 1-sinf o‘qish kitobi. Sharq. Toshkent-2017-yil
8. G‘affarova T. va b. 2-sinf o‘qish kitobi. Sharq. Toshkent-2018-yil
9. G‘ulomov M. “Boshlang‘ich sinflar uchun ona tili o‘quv fanidan ko‘rgazmali qurollar” to‘plami. “El- Xolding”. 2003-yil.
10. ”Boshlang‘ich ta’lim” jurnali. 2018-yil, 5 son.

[www. multimedia.uz](http://www.multimedia.uz)

[www. eduportal.uz](http://www.eduportal.uz)

## Mundarija

Kirish .....	3
O‘quvchi shaxsini rivojlantirishda axborot kommunikatsiya texnologiyalarining ahamiyati.....	5
O‘qish darslari uchun taqdimotlar tayyorlash.....	8
Xulosa.....	17
Foydalanilgan adabiyotlar.....	18

**RABBONAYEVA DILDORA TOLIPOVNA**

**O‘QISH DARSLARI UCHUN TAQDIMOTLAR  
TAYYORLASH**

Terishga berildi: \_\_.11.2019 y.

Bosishga ruxsat berildi: \_\_ 11.2019 y.

Ofset bosma qog‘ozi. Qog‘oz bichimi 60x84 <sup>1/16</sup>.

«Times» garniturasini. Ofset bosma usuli.

1,5 bosma taboq

Adadi: 25 nusxa.

Buyurtma №\_\_